

IJTIMOY REABILITATSIYA VA IJTIMOY MOSLASHTIRISHDA O'ZARO HAMKORLIK

Tillaxodjaev Bahodir Abdullahanovich

Mustaqil tadqiqotchi

Tursunova Dilshoda Umarovna

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim

3-o'quv kursi 325-gurux kursanti.

Annontasiya: *Mazkur maqolada Ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish sohasida yuzaga kelayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha yechimlar o'z aksini topgan. Shuningdek maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan takliflar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy reabilitatsiya, zo'rlik, tajovuz, reabilitatsiya markazlari, hamkorlik.*

Annontation: *This article analyzes the existing shortcomings in the field of social rehabilitation and social adaptation and outlines effective solutions for their elimination. Furthermore, the paper presents the author's specific proposals and recommendations aimed at resolving these issues.*

Keywords: *Social rehabilitation, violence, aggression, rehabilitation centers, cooperation.*

KIRISH

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, barcha iqtisodiy-ijtimoiy resruslarni inson omili yo'lida safarbar qilish maqsadi yotadi.

Davlatning asosiy huquqiy tayanchi sifatida HMQO tursa, ularning asosiy vasifasi etib jamiyat hayotida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va jinoyatlarni oldini olish, sabablarini aniqlash, shart-sharoitlarini bartaraf etish, huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxslarni reabilitatsiya qilish belgilab o'tilgan. Belgilangan vazifalardan eng muhim va bevosita inson omiliga ta'sir ko'rsatuvchi vazifa bu ijtimoiy reabilitatsiya va moslashtirish jarayoni.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish jarayonini tartibga soluvchi bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan, xususan 2018.07.02 PQ-3827 son "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy, zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori,

Vazirlar mahkamasi tomonidan 06.10.2021-yildagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 625-son Qarori, 19.05.2021-yildagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya

qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5116-son qarorlari bilan ushbu soha tartibga solingan. Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish sohasining obyekti bo'lib bevosita huquqbuzarlikdan jabr ko'rgan ayollar, ularning voyaga yetmagan farzandlari hisoblanadi. Buning asosiy sababi sifatida jamiyatning ayrim qatlamlarida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetishmasligi oqibatida oilaviy-maishiy zo'ravonlikning ortishi, ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning turli xil ko'rinishlarining sodir etilishini tushunish kerak. Jamiyatda sodir etilayotgan har qanday huquqbuzarlik va jinoyatlarga, ularning oldini olishga javobgar organlar sifatida barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar, IIO, DXX, PDXX, MG, Adliya, Bojxona, Prokuratura kabi huquqiy vakolatga ega hamda Oila va mahallani qo'llab-quvvatlash vazirligi, FO'O'B, Sog'liqni saqlash vazirligi kabi ko'maklashuvchi organlarni keltirib o'tish mumkin. Ushbu organlar o'zaro hamkorlik orqali huquqbuzarliklarni oldini oladi va jinoyatchilikning barcha shakllariga qarshi kurashadi, shuningdek viktim shaxslarni aniqlash va reabilitatsiya qilish sohasida ham o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Ushbu maqolada yoritib o'tilayotgan muammoning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish jarayonida hamkorlik qiluvchi organlar o'z vakolatlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish orqali kelajakda sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldi olinadi. Hamkorlik turli shakl va yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi, misol uchun ko'maklashuvchi organ hisoblangan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari huquqbuzarlik holati aniqlangan taqdirda to'g'ridan-to'g'ri IIOga xabar berish vakolatiga hamda huquqbuzarlikning asosiy sabablaridan biri bo'lgan ishsizlik, moddiy yetishmovchilik holatida fuqarolarni tegishli nodavlat xizmatlariga yo'naltiradi, oilaviy masalalarda IIO bilan bevosita birga yuzaga kelgan muammoni hal qilishga ko'maklashadi. Shuningdek IIOga bevosita yordam sifatida zo'rlik ishlatilishi yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni aniqlaydi, jabrlanuvchilarni reabilitatsiya markaziga joylashtirilgandan so'ng Sog'liqni saqlash vazirligi xodimlari, mutaxassisleri tomonidan jabrlanuvchi bevosita tekshiruvdan o'tkaziladi. Yuqorida keltirib o'tilgan organlar IIOga huquqbuzarliklarning oldini olish va shart-sharoitlarini bartaraf etish uchun o'zaro hamkorlik orqali ko'maklashadilar.

Agar biz chet el tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyoning yetakchi davlati hisoblangan Norvegiyada jinoyatchini jazolagandan ko'ra uning oldini olgan yaxshiroq tamoyili asosida politsiya organlari o'zaro hamkor tashkilotlar bilan aloqalarga juda katta e'tibor qaratadi. AQSHda esa ijtimoiy reabilitatsiyaga alohida e'tibor qaratiladi.

O'z.Rda IIO hamkorlikni amalga oshiruvchi sohalar:

- huquqbuzarlikni oldini olishda;
- jinoyatlarni aniqlashda;
- sud tomonidan tayinlangan jazoning ijrosini ta'minlashda;
- jabrlanuvchilarni reabilitatsiya qilishda;

-huquqbuzarlik sodir etilishiga hamda jinoyatlarning yuzaga kelishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishda ichki idoralararo hamkorlikni amalga oshiradi;

Hamkorlikni qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilganligi huquqbuzarlik hamda jinoyatning dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, xususan IIOga yondosh bo'lgan sohalar bilan hamkorlik huquqbuzarlik va jinoyatlarni "issiq izida" aniqlashga ko'maklashsa, hamkorlikda bilvosita ishtirok etuvchi SSV, Mahalla yettiligi, Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va mehnat vazirligi kabilar huquqbuzarlikning sabablari va shart-sharoitlariga barham berishda, sodir etilgan huquqbuzarlikning sabablari va shart-sharoitlariga barham berishda, sodir etilgan huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi shaxslarni reabilitatsiya qilishda hamkorlik qiladi. Misol uchun huquqbuzarlikdan jabr ko'rgan shaxs ishsizlik hamda moddiy va ijtimoiy ko'makdan aziyat chekayotgan bo'lsa IIOlari bevosita Mahalla va Oilani qo'llab quvvatlash Vazirligi va Kambag'allikni qisqartirish va Mehnat Vazirligi bilan hamkorlik qilib fuqaroni o'zaro reabilitatsiya qilishadi.

Ijtimoiy reabilitatsiyada hamkorlik bevosita Reabilitatsiya Markazida, huquqbuzarlik va jinoyat sodir etilgan hududda (mahalla yettiligi bilan birga) amalga oshiradi.

Muammo

Ushbu soha bo'yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinishiga qaramasdan bir qator kamchiliklar va muammolar yuzaga kelmoqda. Xususan:

☒ O'zaro hamkorlikni amalga oshirishda aloqa ta'minotining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi;

☒ Reabilitatsiya markaziga joylashtirishda , tibbiy, psixologik ko'mak beruvchi xodimlar yetishmasligi;

☒ Ayrim holatlar qonun hujjatlari bilan tartibga solinmaganligi;

☒ Hamkorlikning to'g'ri tashkil etilmasligi;

☒ Hamkor tashkilot va organlar o'z vaqtida xabardor etilmasligi yoxud aniqlangan holatlar bo'yicha aniq ma'lumotlar yetkazish muddatlari belgilanmaganligi (qonun hujjatlaridagi bo'shliq);

☒ Hamkorlik qiluvchi organlarga xabar berilgan taqdirda ham belgilangan chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirilmasligi;

Yuqorida keltirib o'tilgan muammo va kamchiliklarga yechim sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

☒ Bevosita hamkorlikni amalga oshiruvchi organlarning vakolatlarini qonun hujjatlarida belgilab berish hamda kengaytirish;

☒ Hamkor organlar hamda IIO larining resrus ta'minotini yaxshilash;

☒ Ijtimoiy reabilitatsiya Markazlari ahvolini yaxshilash;

☒ Fuqarolarga huquqiy targ'ibotni amalga oshirishda bevosita hamkor tashkilot ishtirokini tashkil etish;

Belgilangan chora-tadbirlarni bajarish majburiyatini qonun hujjatlarida mstahkamlab qo'yish orqali yuzaga kelayotgan muaamolarga barham berish mumkin.

Xulosa qilib aytganda sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish va barham berish jarayonida faqatgina IIO emas balki mamlakat hayotida uning rivojida ishtirok etayotgan barcha korxonalar, tashkilot, muassasalar, huquq sohasida bevosita vakolatli organlar va ularga bevosita, bilvosita ko'maklashuvchi organlar, vazirliklarning vazifasi. Hamkorlikni amalga oshirishda qonun hujjatlari doirasida harakat qilgan holda fuqarolarning huquqlarini ta'minlashda, ayniqsa huquqbuzarlikdan jabr ko'rgan fuqarolarning buzilgan huquqlarini qayta tiklash jarayonida ishtirok etuvchi barcha organlarning huquqiy maqomi kengaytirish amalga oshirilayotgan islohotlarning bir qismi hisoblanadi. Bu sohadagi muammo va kamchiliklar doirasini qisqartirishda, normativ-huquqiy hujjatlarda yo'l qo'yilayotgan bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida barcha qonun, hamda huquqiy kuchga va ahamiyatga ega hujjatlar qabul qilish huquqiga ega organlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinyapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич. "ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ЁШ АВЛОДНИ ТЕРРОРИЗМ ВА ЭКСТРЕМИЗМ ТАҲДИДЛАРИДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 134-140.

2. Атажанов, Ў. М. (2025). МАЪМУРИЙ НАЗОРАТ ОСТИДАГИ ШАХСЛАР БИЛАН ЯККА ТАРТИБДАГИ ПРОФИЛАКТИКАНИНГ ИЖТИМОЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ВА ЙЎНАЛИШЛАРИ. Научный Фокус, 3(30), 127-133.

3. Атажанов Ў. М. и др. МАЪМУРИЙ НАЗОРАТ ТИЗИМИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ВА УНИНГ ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 119-126.

4. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич, and Ҳамидалиев Асадбек Жасур. "БОЗОРЛАР ҲУДУДИДА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ТИЗИМИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАҲЛИЛИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 152-162.

5. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич. "ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПРОФИЛАКТИКА ОБЪЕКТЛАРИ БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 184-190.

6. Атажанов Ў. М. и др. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ БОЗОР ОБЪЕКТЛАРИДАГИ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 163-171.

7. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич. "ҲАЁТГА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ КРИМИНОЛОГИК САБАБЛАРИ ВА МАХСУС ПРОФИЛАКТИК ТАЪСИР ЙЎНАЛИШЛАРИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 191-197.

8. Атажанов Ў. М. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ

ТАЪМИНЛАШДАГИ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАР //World scientific research journal. – 2023. – Т. 12. – №. 2. – С. 81-89.

9. Атажанов Ў. Шаҳар ҳудудида жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича профилактика инспектори фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишнинг бугунги ҳолати ва ўзига хос хусусиятлари //Актуальные вопросы обеспечения прав женщин и предотвращения насилия в семье в Узбекистане. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 24-30.

10. Майор А. Ў. М. ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ МАХАЛЛА ФУҚАРОЛАР ЙИҒИНЛАРИДАГИ ҲИСОБОТ БЕРИШ ФАОЛИЯТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАҲЛИЛИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 11. – №. 6. – С. 117-121.

11. Атажанов, У. М. (2025). ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМОСВЯЗИ ЦИФРОВОЙ КРИМИНАЛИСТИКИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКИ ПО ОРГАНИЗАЦИИ И КООРДИНАЦИИ ПРОФИЛАКТИКИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 8(5), 127-135.

12. Ганиев Ф. Т., Давлетов Ф. О. У. РАБОТА ИНСПЕКТОРА ПРОФИЛАКТИКИ С БЕЗНАДЗОРНЫМИ И БЕСПРИЗОРНЫМИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ И ПРОБЕЛЫ НА ПРАКТИКЕ //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 16. – С. 179-182.

13. Адхамов, Зафар Акбарович. "ШАХСЛАРНИ ЗЎРАВОНЛИК ХУЛҚ-АТВОРИНИ ЎЗГАРТИРИШ БЎЙИЧА ТУЗАТИШ ДАСТУРИДАН ЎТКАЗИШДА ДИНИЙ УЛАМОЛАР БИЛАН ҲАМКОРЛИКНИНГ АҲАМИЯТЛИ ЖИҲАТЛАРИ." THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY 2.20 (2024): 114-117.

14. Адхамов, З. А. (2025). ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ НАЗОРАТ-ЛИЦЕНЗИЯ ҚОИДАЛАРИГА РИОЯ ЭТИЛИШНИ ТАЪМИНЛАШ ФАОЛИЯТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(2-2), 165-172.

15. Мустофақулов Б. А. Ў., Шодмонов Д. Э. Ў. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ПАТРУЛ-ПОСТ ХИЗМАТИ ВА ЖАМОАТ ТАРТИБИНИ САҚЛАШ БЎЛИНМАЛАРИ БИЛАН ЎЗАРО ҲАМКОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – №. 4. – С. 47-51.